https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Alimova Qunduz Oybek qizi
Jizzax davlat pedagogika universiteti
Ta’lim menejmenti kafedrasi o’qituvchisi
qunduzalimova2025@gmail.com

RAQAMLI MENEJMENT TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA TA’LIM SIFATINI BOSHQARISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya. Maqolada raqamli boshqaruv texnologiyalari asosida ta’lim sifatini nazorat qilish tizimini takomillashtirish masalalari o‘rganilgan. Tadqiqotda ta’lim sifatini boshqarishda raqamli platformalar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, monitoring va baholash ko‘rsatkichlaridan foydalanishning ilmiy-nazariy hamda amaliy jihatlari tahlil etilgan. Oliy ta’lim muassasalarida boshqaruv jarayonlarini raqamlashtirish orqali ta’lim sifatini yuksaltirish, qarorlar qabul qilish jarayonlarining shaffofligini va samaradorligini ta’minlash imkoniyatlari asoslab berilgan. Shuningdek, raqamli boshqaruv texnologiyalarini joriy etish jarayonida yuzaga keladigan muammolar va ularni bartaraf etish bo‘yicha amaliy takliflar hamda tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: raqamli menejment, ta’lim sifati, ta’lim sifatini boshqarish, raqamli texnologiyalar, monitoring va baholash, boshqaruv samaradorligi, raqamli platformalar, oliy ta’lim muassasalari.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СИСТЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ КАЧЕСТВОМ ОБРАЗОВАНИЯ НА ОСНОВЕ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ МЕНЕДЖМЕНТА

Алимова Кундуз Ойбековна

Преподаватель кафедры образовательного менеджмента
Джизакский государственный педагогический университет
qunduzalimova2025@gmail.com

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Аннотация. В статье изучаются вопросы совершенствования системы контроля качества образования на основе цифровых управленческих технологий. В ходе исследования проанализированы научно-теоретические и практические аспекты использования цифровых платформ, информационно-коммуникационных технологий, а также показателей мониторинга и оценки в управлении качеством образования. Обоснованы возможности повышения качества образования, а также обеспечения прозрачности и эффективности процессов принятия управленческих решений за счёт цифровизации управленческих процессов в высших образовательных учреждениях. Кроме того, выявлены проблемы, возникающие в процессе внедрения цифровых управленческих технологий, и разработаны практические предложения и рекомендации по их устранению.

Ключевые слова: цифровой менеджмент, качество образования, управление качеством образования, цифровые технологии, мониторинг и оценка, эффективность управления, цифровые платформы, высшие учебные заведения.

IMPROVING THE EDUCATION QUALITY MANAGEMENT SYSTEM BASED ON DIGITAL MANAGEMENT TECHNOLOGIES

Alimova Qunduz Oybek qizi
Lecturer, Department of Educational Management
Jizzakh State Pedagogical University
E-mail: qunduzalimova2025@gmail.com

Abstract. The article examines the issues of improving the education quality control system based on digital management technologies. The study analyzes the scientific-theoretical and practical aspects of using digital platforms, information and communication technologies, as well as monitoring and evaluation indicators in managing education quality. The possibilities of enhancing education quality

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

and ensuring transparency and efficiency in managerial decision-making processes through the digitalization of management processes in higher education institutions are substantiated. In addition, the challenges arising in the implementation of digital management technologies are identified, and practical proposals and recommendations for overcoming them are developed.

Keywords: digital management, education quality, education quality management, digital technologies, monitoring and evaluation, management efficiency, digital platforms, higher education institutions.

Kirish

Hozirgi globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida ta’lim tizimini boshqarishning samaradorligini oshirish, ta’lim sifatini ta’minlash va uni doimiy nazorat qilish masalalari davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ayniqsa, oliy ta’lim muassasalarida boshqaruv jarayonlarini raqamlashtirish, ma’lumotlarga asoslangan qarorlar qabul qilish va ta’lim sifatini baholashning zamonaviy mexanizmlarini joriy etish dolzarb ilmiy-amaliy vazifa hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining so‘nggi yillarda qabul qilingan farmon va qarorlarida ta’lim sifatini oshirish, boshqaruv tizimini modernizatsiya qilish hamda raqamli texnologiyalarni joriy etish masalalariga alohida e’tibor qaratilgan. Jumladan, “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasida ta’lim tizimini raqamlashtirish, elektron boshqaruv va raqamli platformalar asosida ta’lim sifatini monitoring qilish, tahlil qilish va baholash mexanizmlarini rivojlantirish ustuvor vazifalar sifatida belgilangan [1]. Ushbu strategiya doirasida ta’lim jarayonlari va boshqaruv faoliyatida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanish orqali ta’lim sifati va samaradorligini oshirish nazarda tutilgan.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirishga qaratilgan qaror va farmonlarida ta’lim sifatini boshqarish tizimini takomillashtirish, raqamli menejment texnologiyalarini joriy

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

etish, ta’lim natijalarini baholashda zamonaviy indikatorlar va reyting mexanizmlaridan foydalanish zarurligi qayd etilgan [2]. Mazkur hujjatlarda oliy ta’lim muassasalarining boshqaruv faoliyatida shaffoflikni ta’minlash, ichki sifat nazorati tizimlarini raqamli asosda tashkil etish muhim vazifa sifatida belgilangan.

Bundan tashqari, ta’lim sohasida davlat boshqaruvini takomillashtirishga oid normativ-huquqiy hujjatlarda ta’lim sifatini boshqarishda raqamli platformalar, elektron monitoring tizimlari hamda ma’lumotlar bazalaridan foydalanish orqali boshqaruv samaradorligini oshirishga alohida urg‘u berilgan [3]. Bu esa ta’lim muassasalarida an’anaviy boshqaruv yondashuvlaridan raqamli menejment texnologiyalariga asoslangan boshqaruv tizimiga bosqichma-bosqich o‘tishni taqozo etadi.

Shu boisdan, raqamli menejment texnologiyalari asosida ta’lim sifatini boshqarish tizimini takomillashtirish, ya’ni raqamli platformalar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, monitoring va baholash mezonlaridan kompleks foydalanish orqali ta’lim sifati va boshqaruv samaradorligini oshirish masalalarini ilmiy jixatdan o‘rganish katta ahamiyatga ega. Ushbu maqolada mazkur masalalar ilmiy-nazariy hamda amaliy nuqtai nazardan tahlil etiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Oxirgi yillarda ta’lim sifatini boshqarish tizimini takomillashtirish, boshqaruv jarayonlarida raqamli menejment texnologiyalarining tatbiq qilish masalalari mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan keng tadqiq etilib bormoqda. Shu nuqtaiy nazardan ilmiy adabiyotlarda ta’lim sifati tushunchasi ta’lim natijalari, o‘quv jarayonining samaradorligi, boshqaruv mexanizmlarining ochiqligi va monitoring tizimlari bilan uzviy bog‘liq holda izohlanadi.

Xorijiy ilmiy tadqiqotlarda ta’lim sifatini boshqarishda raqamli menejment yondashuvlari, xususan, KPI (Key Performance Indicators), Big Data, Learning Management System (LMS) va Education Management Information System (EMIS) kabi vositalardan foydalanish ta’lim muassasalarining boshqaruv samaradorligini oshirishi ilmiy jihatdan asoslangan [4]. OECD va UNESCO

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

ekspertlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda raqamli boshqaruv texnologiyalari ta’lim sifatini monitoring qilish, baholash va tahlil etish jarayonlarining shaffofligini ta’minlovchi muhim omil sifatida e’tirof etiladi [5].

Ta’lim sifatini boshqarish masalalariga yo‘naltirilgan ilmiy tadqiqotlarda raqamli texnologiyalar asosida boshqaruv qarorlarini qabul qilish, ma’lumotlarga tayangan holda strategik rejalashtirish va ichki sifat nazorati tizimlarini takomillashtirish muhim yo‘nalish sifatida e’tibor qaratish alohida axamiyat kasb etadi. Xususan, A. Schleicher, M. Fullan, T. Davenport kabi olimlarning ishlarida ta’lim boshqaruvida raqamli transformatsiya jarayonlari, tahliliy platformalar va raqamli indikatorlardan foydalanishning ijobiy natijalari yoritilgan [6].

Mahalliy olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida ta’lim sifatini oshirish, boshqaruvni modernizatsiya qilish va raqamli texnologiyalarni joriy etish masalalariga alohida e’tibor qaratilgan. Jumladan, S.S. Gulyamov, M. Abdullayev, S. Allayarova va boshqa tadqiqotchilar ishlarida ta’lim jarayonini boshqarishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish, elektron monitoring tizimlari va raqamli platformalar orqali ta’lim sifatini baholash masalalari tahlil qilingan [7]. Ushbu tadqiqotlarda raqamli texnologiyalar ta’lim sifati va boshqaruv samaradorligini oshiruvchi muhim omil sifatida baholanadi.

Shuningdek, ayrim tadqiqotlarda ta’lim sifatini boshqarishda raqamli menejment texnologiyalarini joriy etish jarayonida yuzaga keladigan muammolar, jumladan, raqamli infratuzilmaning yetarli emasligi, pedagog va boshqaruv kadrlarining raqamli kompetensiyalarining pastligi, axborot xavfsizligi bilan bog‘liq masalalar ko‘rsatib o‘tilgan [8]. Bu esa raqamli boshqaruv texnologiyalarini joriy etishda tizimli va bosqichma-bosqich yondashuv zarurligini taqozo etadi.

Tahlil qilingan ilmiy adabiyotlar shuni ko‘rsatadiki, raqamli menejment texnologiyalaridan foydalanish ta’lim sifatini boshqarish tizimini takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Biroq mavjud tadqiqotlarda

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalari sharoitida ta’lim sifatini kompleks raqamli menejment yondashuvi asosida boshqarish masalalari yetarlicha tizimlashtirilmagan. Mazkur holat ushbu tadqiqot mavzusining dolzarbligini belgilaydi va uni ilmiy jihatdan chuqur o‘rganishni taqozo etadi.

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur maqolani yoritishda ta’lim sifatini raqamli menejment texnologiyalari asosida boshqarish masalalarini o‘rganishda tizimli va analitik yondashuvlardan foydalanildi. Olib borilgan tadqiqotlarni taqqoslama tahlil qilish, muammoni aniqlash, kuzatuvlarni amalga oshirish, ilmiy adabiyotlar va normativ-huquqiy hujjatlar tahlil qilinib, ta’lim sifatini boshqarishda qo‘llanilayotgan raqamli platformalar hamda monitoring indikatorlarining samaradorligi baholandi.

Tahlil natijalari

Tadqiqot jarayonida raqamli menejment texnologiyalarining ta’lim sifatini boshqarish tizimiga ta’siri tahlil qilindi. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, oliy ta’lim muassasalarida boshqaruv jarayonlarini raqamlashtirish ta’lim sifatini nazorat qilish, monitoring qilish va baholash samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Xususan, raqamli platformalar asosida shakllanadigan ma’lumotlar boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayonlarining tezkorligi va aniqligini ta’minlaydi.

Tadqiqot davomida ta’lim sifatini boshqarishda qo‘llanilayotgan asosiy raqamli menejment vositalari (LMS, elektron reyting tizimlari, monitoring platformalari) tahlil qilindi. Natijalarga ko‘ra, raqamli texnologiyalar joriy etilgan ta’lim muassasalarida o‘quv jarayonini rejalashtirish, nazorat qilish va baholash jarayonlari tizimli va shaffof shaklda amalga oshirilmoqda. Ushbu holat 1-jadvalda umumlashtirilgan.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

1-jadval

Raqamli menejment texnologiyalarining ta’lim sifatini boshqarishdagi funksional ta’siri

Raqamli texnologiya	Boshqaruv funksiyasi	Ta’lim sifatiga ta’siri
LMS	Rejalashtirish va nazorat	O‘quv jarayonining uzluksizligi
Elektron reyting	Baholash	Shaffof va obyektiv baholash
Monitoring tizimi	Tahlil	Tezkor boshqaruv qarorlari

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, raqamli menejment texnologiyalari ta’lim sifatini boshqarishning barcha asosiy funksiyalarini qamrab oladi va ularning integratsiyasi boshqaruv samaradorligini oshiradi. Oliy ta’lim muassasalarida raqamli menejment texnologiyalari joriy etilishidan keyingi o‘zgarishlar natijasida ta’lim sifati ko‘rsatkichlarida yuzaga kelgan o‘zgarishlar tahlil qilindi. Natijalar 2-jadvalda ifodalangan bo‘lib, unda raqamli texnologiyalar joriy etilgunga qadar va undan keyingi ta’lim sifati indikatorlarining o‘sishi foizda aks ettirilgan.


2-jadval

Ta’lim sifati ko‘rsatkichlarining o‘zgarishi (foizda)

Ko‘rsatkichlar	Raqamli texnologiyalargacha	Raqamli texnologiyalardan so‘ng
Monitoring darajasi	55 %	75 %
Baholash shaffofligi	50 %	80 %
Qarorlar qabul qilish tezligi	58 %	82 %
Boshqaruv samaradorligi	60 %	78 %
Ta’lim sifati barqarorligi	57 %	76 %

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Ushbu 2-jadval ma’lumotlari tahlili shuni ko‘rsatadiki, raqamli menejment texnologiyalarini joriy etish natijasida ta’lim sifatini boshqarish bilan bog‘liq asosiy ko‘rsatkichlar sezilarli darajada yaxshilangan. Xususan, ta’lim jarayonini monitoring qilish darajasi 55 foizdan 75 foizga oshgan bo‘lib, bu boshqaruv jarayonlarining tizimliligi va doimiyligini ta’minlash imkonini bergan. Baholash shaffofligi ko‘rsatkichi 50 foizdan 80 foizga yetgani raqamli baholash va elektron reyting tizimlarining joriy etilishi bilan izohlanadi. Shuningdek, raqamli platformalar asosida ma’lumotlar almashinuvi yo‘lga qo‘yilishi natijasida boshqaruv qarorlarini qabul qilish tezligi 58 foizdan 82 foizga oshgan. Boshqaruv samaradorligi va ta’lim sifati barqarorligi ko‘rsatkichlarida ham mos ravishda 18–20 foizlik ijobiy o‘sish kuzatilgan. Natijalar 1-rasmda (diagrammada) ifodalangan bo‘lib, unda raqamli texnologiyalar joriy etilgunga qadar va undan keyingi ta’lim sifati indikatorlarining o‘sish dinamikasi aks ettirilgan.



1-rasm. Raqamli menejment texnologiyalarining ta’lim sifati boshqaruviga ta’siri

2-rasm ma’lumotlari tahlili shuni ko‘rsatadiki, raqamli menejment texnologiyalarini joriy etish ta’lim sifatini boshqarish bilan bog‘liq barcha asosiy ko‘rsatkichlarning o‘sishiga olib kelgan. Ayniqsa, baholash shaffofligi va boshqaruv qarorlarini qabul qilish tezligi ko‘rsatkichlarida yuqori o‘sish sur’atlari kuzatilgan. Mazkur holat raqamli platformalar va monitoring tizimlari asosida boshqaruv qarorlarini qabul qilish samaradorligi oshganligini ko‘rsatadi.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Xulosa va amaliy takliflar

Olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, raqamli menejment texnologiyalarini ta’lim sifatini boshqarish tizimiga joriy etish ta’lim jarayonini nazorat qilish, monitoring qilish va baholash samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Tadqiqot davomida olingan statistik ma’lumotlar va diagrammalar raqamli boshqaruv vositalaridan foydalanish ta’lim sifatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini, boshqaruv qarorlarining tezkorligi, aniqligi va shaffofligi ta’minlanishini tasdiqladi.

Tahlil natijalariga ko‘ra, raqamli platformalar (LMS, elektron reyting va monitoring tizimlari) asosida boshqariladigan ta’lim muassasalarida monitoring darajasi, baholash shaffofligi, boshqaruv samaradorligi va ta’lim sifati barqarorligi kabi asosiy ko‘rsatkichlar barqaror o‘sishga ega bo‘lgan. Bu holat raqamli menejment texnologiyalarining ta’lim sifatini boshqarishda muhim strategik vosita ekanligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, tadqiqot jarayonida raqamli boshqaruv texnologiyalarini joriy etishda qator muammolar, jumladan, raqamli infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi, pedagog va boshqaruv kadrlarining raqamli kompetensiyalarining pastligi, axborot xavfsizligi masalalari mavjudligi aniqlangan. Ushbu muammolar raqamli menejment texnologiyalaridan to‘liq va samarali foydalanishga ma’lum darajada to‘sqinlik qilmoqda.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, quyidagi **amaliy takliflar**ni ilgari surish maqsadga muvofiq deb hisoblanadi:

1. Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini boshqarish bo‘yicha **yagona raqamli menejment platformalarini** joriy etish va ularni o‘zaro integratsiyalash.
2. Ta’lim sifatini baholashda **raqamli monitoring va indikatorlar tizimini** ishlab chiqish hamda ularni amaliyotga joriy etish.
3. Pedagog va boshqaruv kadrlarining **raqamli kompetensiyalarini oshirish** bo‘yicha tizimli o‘quv dasturlarini tashkil etish.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

4. Ta’lim sifatini boshqarishda **ma’lumotlarga asoslangan qarorlar qabul qilish** mexanizmlarini kengaytirish.
5. Raqamli boshqaruv tizimlarini joriy etishda **axborot xavfsizligini ta’minlash** va ma’lumotlarni himoyalash choralarini kuchaytirish.

Xulosa qilib aytganda, raqamli menejment texnologiyalari asosida ta’lim sifatini boshqarish tizimini takomillashtirish oliy ta’lim muassasalarining raqobatbardoshligini oshirish, ta’lim sifatini barqaror ta’minlash hamda zamonaviy mehnat bozori talablariga mos mutaxassislar tayyorlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF–6079-son Farmoni. — Toshkent, 2020-yil 5-oktyabr.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” PF–5847-son Farmoni. — Toshkent, 2019-yil 8-oktyabr.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ–3775-son Qarori. — Toshkent, 2018-yil 5-iyun.
4. OECD. Education at a Glance 2022: OECD Indicators. — Paris: OECD Publishing, 2022.
5. UNESCO. Digital Transformation of Education: Policy and Strategy Framework. — Paris: UNESCO, 2021.
6. Schleicher A. World Class: How to Build a 21st-Century School System. — Paris: OECD Publishing, 2018.
7. Fullan M. The New Meaning of Educational Change. — New York: Teachers College Press, 2016.
8. Davenport T.H., Harris J.G. Competing on Analytics: The New Science of Winning. — Boston: Harvard Business School Press, 2017.
9. Gulyamov S.S., Abdullayev M. Oliy ta’lim tizimida raqamli texnologiyalarni joriy etishning ilmiy-amaliy asoslari. — Toshkent: Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar, 2020.
10. Allayarova S.N. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari – oliy ta’lim sifati va samaradorligini oshirish omili. // Zamonaviy ta’lim, 2020, №4, 10–19-betlar.